FURQAT MUVASHSHAHLARIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Arofatoy Muydinova,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi
dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodidagi muvashshah asarlar, xususan, Zokirjon Furqat yaratgan muvashshahlar, ularda tilga olingan kishilar shaxsiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, shoir, muvashshah, muvashshahchilik, g‘azal, matla’, muxammas, she’riy maktub.

Annotation

The article talks about muvashshah works in the work of Representatives of the Kokand literary environment, in particular about the personality of the muvashshahs created by Zakirjan Furqat, the people mentioned in them.

Keywords: literary environment, poet, muwashshah, muwashshahism, Ghazal, matla’, mukhammas, poetic letter.

Аннотация

В статье рассматриваются произведения в жанре мувашшах в творчестве представителей Кокандской литературной среды, в частности мувашшахи, созданные Закирджаном Фуркатом, а также личность лиц, упоминаемых в них.

Ключевые слова: литературная среда, поэт, мувашшах, искусство создания мувашшаха, газель, матла, мухаммас, поэтическое письмо.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik o‘ziga xos adabiy taomilga aylangani ma’lum. Bu davr adabiyotiga xos yana bir o‘ziga xoslik XV asrda Hirot adabiy muhiti shoirlari orasida muammonavislik avj olgani kabi muvashshahchilikning ommalashganidir. Bu an’ana o‘z navbatida Qo‘qon adabiy muhiti shoirlari ijodida ham o‘z ifodasini topdi.

Mazkur adabiy muhitning peshqadam vakillaridan Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ham muvashshahchilikda barakali ijod qilgan. Uning qirqdan ortiq muvashshah-g‘azallar yaratgani ma’lum. Shoirning ko‘pgina muvashshahlari adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, akademik Aziz Qayumov “She’riyat jilolari” asarida uning Mahmudxon, Toshkandxon, To‘ychixon, Solijon, Qalandarxon, Maqsudjon, Ahmadxon, Yusufjon, A’zamxon, Yo‘ldoshxon, Rashidxon, Islomxon, Mahkamxon, Normuhammad, Jalolxon, Sayidqosimxon kabi zamondoshlari nomiga bitgan muvashshahlarining yuksak mahorat bilan yaratilganini ta’kidlaydi. Shoir va olim Maqsud Shayxzoda “Furqat haqida qaydlar” nomli tadqiqotida Furqat muvashshahlari haqida shunday yozadi: “Orazing qachon ko‘rdi” g‘azali Abduqodirxon nomiga, “Ko‘zing” g‘azali Islomxon nomiga, “Shahlo ko‘zlaring” g‘azali Mahkamxon nomiga, “Kokiling” g‘azali Rashidxon ismiga, “Ishq otashi” g‘azali Odilxon ismiga, “Xayola dushti” g‘azali Odilxon ismiga, “Shakar to‘kildi” g‘azali Toshkandxon ismiga, “Ahdu paymon aylagan” g‘azali Muhammadxon ismiga, “Sayri chaman” g‘azali Rashidxon ismiga, “Kechalar” g‘azali Muhiddinxon ismiga bog‘langan va hokazo...”[12;91] Olim muvashshah haqidagi mulohazalarini Furqatning Maqsudjon ismli kishi nomiga bag‘ishlangan muvashshahidan bir

baytni tahlil etish bilan asoslaydi. Mazkur muvashshahda nomi muvashshah qilingan “Maqsudjon” shoir Mirahmad Miriyning jiyani, Toshkentning O‘zgand mahallasida yashab o‘tgan, Furqatdan bir necha yosh katta bo‘lgan do‘sti Mirmaqsud oqsoqol bo‘lganligi professor Sh.Yusupov tomonidan aniqlangan[10;146]. “Tazkirai Qayyumiy”da ham Mirmaqsud oqsoqolning o‘zi ham shoir ekanligi haqida ma’lumot berilgan va Ahmadjon ismiga yozgan muvashshahi keltirilgan[9;428].

Akademik A.Qayumov Furqat lirikasi tadqiqiga bag‘ishlangan “She’riyat jilolari” asarida uning “Tanlangan asarlari” 1-jildida 16 ta muvashshahini ko‘rib chiqqanini yozadi[8;44]. Shuningdek, professor Sharif Yusupov Furqatning bir qancha muvashshahlarini aniqlab, bunday yozadi: “Shoirning yangi topilgan g‘azallari orasida ham Xabodxon, Shodmonxon, Jamolxon, Normuhammad, Rashidxon ismiga qilingan muvashshahlar uchraydi. Shulardan Jamoliddin (Jamolxon) shoirning toshkentlik ma’rifatparvar do‘stlaridan bo‘lgan”[7;174].

Adabiyotshunos S.Karimovaning ta’kidlashicha: “Furqat muvashshahdan shunchaki she’riy shakl sifatida foydalanmadi, uning muvashshahlari adabiyotimiz tarixi, shuningdek, shoirning hayoti va ijodini o‘rganishda katta ahamiyatga ega... Ismi bitilgan bu kishilarni Furqat shaxsan tanigan, bilgan bo‘lishi, shubhasiz”[6;45]. Nomlari muvashshah qilingan shaxslarni aniqlash orqali shoirlarning adabiy davrasi, yaqin do‘stlari va, albatta, davr adabiy muhiti haqida keng tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Xususan, shoirning “May ichib, ko‘zlarni senmu nomusulmon aylagan, Kishvari islomni toroj-u vayron aylagan?” matla’si bilan boshlanadigan muvashshah-g‘azali Mahmudxonga bag‘ishlangan. Mahmudxon – Mahmudxo‘ja shoirning toshkentlik do‘stlaridan biri. Bu haqda Furqat “Sarguzashtnoma”sida o‘qiymiz: “Bu vaqtda qutblar qutbi hazrati Shayxovand Tahur qabrlari yaqinida Mahmudxo‘ja ismli bir juvonmard kishi muhabbat yuzasidan ko‘z qorachig‘ida mardumak kabi menga o‘z uyidan joy ko‘rsatdi”[1;73]. 1889-1891-yillarda Furqat Toshkentda yashagan davrida Mahmudxo‘ja shoirga iltifot bilan qaragan va unga doimo g‘amxo‘rliklar qilib turgan. Shuning uchun Furqat chet ellardan Toshkentga yozgan xatlaridan birida Mahmudxo‘ja nomini hurmat bilan tilga oladi va uni “og‘om” deb atab, minnatdorchiliklar izhor qiladi:

Chiqib tashqori maydonga guzar qil,
Vale mag‘rib tarafg‘a bir nazar qil.
Ko‘zingg‘a naqshlik manzar ko‘rungay,
Hama oyinasi javhar ko‘rungay.
Erur yoni ravonlik katta ayvon,
Egosi nomi Mahmudxo‘ja eshon.
Muhabbatlik mango bir oshnodur,
Na tanho oshno balkim, og‘odur...[2;110].

Mahmudxo‘ja bilan shoir Muqimiy ham yaqin do‘st bo‘lgan. Uning ham Mahmudxon nomiga bitilgan muvashshahi mavjud. Mahmudxo‘ja haqida prof.G‘.Karimovning “Muqimiy” monografiyasida quyidagi ma’lumotlar uchraydi: “Mahmudxo‘ja ishboshi – Shayxantahurlik, pudratchi-binokor bo‘lgan, shuning uchun “ishboshi” nomi bilan shuhrat qozongan. Zamonasining peshqadam, taraqqiyparvar, ilmparvar kishilaridan biri. San’at-adabiyot ahllariga moddiy jihatdan yordam berib, homiylik qilib kelgan. Uning hovlisida (mehmonxonasida) tez-tez adabiy kechalar o‘tkazib turilgan. Bu kechalarda Muqimiy ham, o‘z vaqtida Furqat ham ishtirok etgan. Muqimiyning Mahmudxo‘jaga atab alohida va Kamiy bilan birgalikda yozgan bir necha maktublari – avtograflari saqlanib qolgan.

Qo‘qon bilan Toshkent o‘rtasidagi yozishmaning tiklanishidan keyin oradan ko‘p vaqt o‘tmay, Muqimiy Toshkentga yo‘lga chiqadi. Shunday qilib, Muqimiy 1899-yilning taxminan

yoz paytlarida Toshkentga uchinchi marta keladi. Toshkent Tarnovboshi (Shayxantahurda) mahallalik keksalardan Salohiddin Muftizoda o‘z esdaliklarida 1899-yilning yoz oylarida Muqimiyni Mahmudxo‘ja mehmonxonasida uchratganini aytadi. Bu vaqtlarda o‘n uch yoshlarida bo‘lgan (u 1886-yilda tug‘ilgan) Salohiddin otasi mulla Abdumo‘min (bu kishi “Fidoyi” taxallusi bilan she’rlar yozgan, adabiyot havaskori bo‘lgan) topshirig‘iga binoan Mahmudxo‘ja mehmonxonasida Muqimiy sharafiga tashkil etilgan ziyofatda xizmat qilgan, shu munosabat bilan shoirni ko‘rishga, uning suhbatini tinglashga muyassar bo‘lgan”[5;113].

Furqatning “Asiri zulfum ersang, kokulingga mubtalo man ham, Xarobi holim ersang, holingga bag‘ri ado man ham” bayti bilan boshlanuvchi muvashshah-g‘azali A’zamxon nomiga bog‘langan. Bu shaxs, bizningcha, shoirning Toshkentda uchrashgan do‘stlaridan biri. Bu haqda o‘qiymiz: “...Sog‘lig‘im o‘zgarib qon tomirim harakatidan turli-tuman holatlar paydo bo‘la boshladi. Shuning uchun tabiblarning “safar kasallikni ketkizadi” degan iboralari mazmunini amalga oshirib Toshkent tarafiga yo‘l oldim. Tarix 1306-yil shavvol (1889-yil iyun) oyi o‘rtalarida Toshkentga kelib, Hoji A’zam ismli bir g‘oyibona do‘stim bilan uchrashishga musharraf bo‘ldim. U kishining qayta-qayta taklif qilgani (sababli) Ko‘kaldosh madrasasida yashab, uning dasturxonidan noz-ne’matlar tanovul qildim. (Do‘stim) mening tuzalib ketishimga qo‘lidan kelgancha yordamlar qildi. Mo‘l-ko‘lchilik davosidan mizojim yaxshilana boshladi, oz kunda sog‘ayib ketdim. To‘qqiz oygacha (do‘stim) bu yerda ko‘nglimga qarab hurmat e’tibor qildi. Bu orada (men ham) o‘zimga munosib ishlarga mashg‘ul bo‘ldim. Viloyatning ko‘zga ko‘ringan va martabali kishilaridan tanish-bilish paydo qildim. Qozi va mingboshilar guruhida mening ta’rifimdan xabar topdilar...”[1;72] Shuningdek, shoirning “Ermas manga g‘araz gul, guldin nishon o‘zingsan” misralari bilan boshlanadigan muxammasi ham A’zamxon nomiga muvashshah bog‘langan.

Shoirning “Mahvasho, sensiz menga qilurg‘a tongg‘a tegru intizor, Och yuzingkim, ko‘kda oy birla garozu kechalar” misralari bilan boshlanadigan muvashshah-g‘azali qo‘qonlik do‘stlaridan Muhiddinxonga bag‘ishlangan. Buni uning 1889-1891-yillarda Toshkentda ekanida Muqimiyga yozgan she’riy maktubidan taxmin qilishimiz mumkin. Maktubda o‘qiymiz:

“Salom, ey menga yor-u oshinolar,
Qadrdonlar, zamiri purziyolar.
Muqimi-yu, Hoji Muhitdin, Zavqiy,
Muhayyir – barcha zakki-yu rasolar”[3;273].

Muhiddinxon nomining barcha shoirlar qatorida keltirilishidan uning ham shoir ekanligi ma’lum bo‘ladi. Agar bu shaxs Hoji Muhiddin Muhyi ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, muvashshah bog‘langan shaxs shoir Muhyi bo‘lib chiqadi. Zotan, Furqat o‘z hayotining oxiriga qadar ham Muhyi iste’dodiga tan berib, uning g‘azallariga tatabbular bitib, unga ko‘p maktublar va o‘z asarlarini yo‘llab yashagani manbalardan ma’lum.

Furqatning “Yuzung guldin musaffodur, labing rangi xinodin ham”[4;125] matla’li hamda “Yashnab o‘tsang lolagun xil’at kiyib, aylab shitob, Tushmag‘aymu rasta ahlin jonlarig‘a pech-u tob” matla’li g‘azallari Yusufjonga muvashshah qilingan. Bu shaxs haqida professor Sh.Yusupov “Xufiya qatlamlar” asarida atroflicha ma’lumot bergan[11;144]. Furqatning Istanbuldan yo‘llangan “Sabog‘a xitob” she’riy maktubida shoir savdogar do‘stlari orasida Yusuf boyvachchani ham alohida ehtirom bilan yodga oladi. Gap shundaki, professor Sh.Yusupovning hikoya qilishlaricha, u kishi avvaliga toshkentlik savdogarlardan bo‘lgan otalari Muhammad Yusuf boyvachcha Nurmuhammad o‘g‘li o‘sha davrning mashhur hofiz va shoirlari bilan do‘st bo‘lganliklarini bilganlari uchun she’riy maktubda tilga olingan Yusuf boyvachchani o‘z otalari deb taxmin qiladilar. Lekin keyinchalik bu taxmin xato bo‘lib chiqadi. Olim izlanishlar natijasida maktubda yodga olingan Yusuf boyvachchaning yaqinlari bilan tanishishga muvaffaq

bo‘ladilar. Yusuf boyvachchaning Furqat tomonidan Rahbarniso deb ism qo‘yilgan qizlari va kelinlari bilan suhbatlashadilar.

“Yusuf boyvachcha Abdurasulhoji o‘g‘lining otasi asli Qo‘qonning tog‘lik mahallasidan bo‘lib, tijorat ishlari bilan Toshkentga qatnab yurganida shu yerlik bir savdogarning qiziga uylanib, toshkentlik bo‘lib qolgan ekan. Yusuf boyvachcha o‘sha Tarnovboshi(Toshkentdagi) mahallasida 1855-yilda tug‘ilib, ota kasbi savdogarchilikda umri kechgan... Furqat bilan Yusuf boyvachchaning do‘stlashuvida avvalo, uning ham she’riyatga qattiq qiziqqanligi, zamonaviy ilm-fanni egallash yo‘lidagi fidoyiligi, ikkinchidan esa, otasi asli qo‘qonlik bo‘lganligi ham bois bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Rahbarniso momo otalarining Furqatdan tashqari Muqimiy, Abdulla Qodiriy, To‘ychi hofizlar bilan ham qadrdon bo‘lganligi, ular Yusuf boyvachcha hovlisida tez-tez bo‘lib, ajib suhbatlar qurganliklari xususida, otalari bu aziz do‘stlari haqida umrining oxirigacha tinmay hikoya qilganligi to‘g‘risida to‘lib-toshib gapiradilar...”[11;130]. Mazkur ma’lumotdan Muqimiyning yangi topilgan she’rlari orasidagi “Yuzmu tobon, charx uza yo mehri anvardakkina” matla’li muvashshahi ham Yusuf boyvachcha nomiga bog‘langanini ishonch bilan aytish mumkin.

Furqat ijodida ham boshqa zamondosh shoirlar qatori bir shaxs nomiga bir necha muvashshah-g‘azal bitilganini kuzatish mumkin. Masalan, Toshkandxon nomiga 2 ta, Yusufjon nomiga 2 ta, Qalandarxon nomiga 4 ta, Mulla Abduqodirjon nomiga 2 ta muvashshah bog‘langan. Bundan tashqari shoirning, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, A’zamxon nomiga 1 ta g‘azal va 1ta muxammasi ham muvashshah qilingan.

Xullas, muvashshahlarni o‘rganish shoirlar adabiy-estetik olamini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, ularni ilmiy asosda o‘rganish adabiyot tarixining qorong‘i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Furqat ijodiyoti. – T.: Fan, 1990.
2.Furqat. Sabog‘a xitob (Toshkentga xat). Tanlangan asarlar. – T., 1959.
3.Furqat. Tanlangan asarlar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at, 1975.
4.Furqat. Muhabbat yo‘lida. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.
5.Karimov G‘. Muqimiy. Monografiya. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1970.
6.Karimova S. Furqat muvashshahlari. // O‘zbek tili va adabiyoti. – T.,1998, 4-son.
7.Pardayev Q. Muqimiy she’riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – T.: Muharrir, 2019.
8.Qayumov A. She’riyat jilolari. – T.:O‘qituvchi, 1997.
9.Qayumov P.D. Tazkirai Qayyumiy II daftar. – T.: O‘zRFA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998.
10.Yusupov Sh.Tarix va adab bo‘stoni. – T.: Ma’naviyat, 2003.
11.Yusupov Sh. Xufiya qatlamlar. – T .:Ma’naviyat, 1999.
12.Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchi tom. – T.: Adabiyot va san’at, 1973.